



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 7

MUTAKKIRLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIKKA OID QARASHLARI

Avulpairov Firdavsiy O'tkir o'g'li
Samarqand davlat chet tillar instituti
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutaffakirlaridan Abu Ali Ibn Sinoning psixologik salomatlikka oid qarashlari bundan tashqari psixologik salomatlikka oid zarur ma'lumotlar keltirilgan. Sharq mutaffakirlaridan Abu Nasr Farobiyning salomatlik to'g'risidagi qarashlari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: salomatlik, ruhiy salomatlik, Abu Ali Ibn Sino, "Shifo kitobi", psixologik salomatlik, tana a'zolari quvvati, Abu Nasr Farobiy, tana var ruh salomatligi tushunchalari.

Sharq tabobati uzoq o'tmishga ega bo'lib, asrlar davomida inson salomatligini muhofaza qilish borasidagi bilimlar bilan boyib borgan. O'rta asrlarda yaratilib, bugungi kunga qadar yetib kelgan manbalar orasida Husayn ibn Is'hoq (808-877 yy.), Abu Bakr ar-Roziy (865-925 yy.), Is'hoq al-Isroiliy (932 yili tug'ilgan), Rabi' al-Buxoriy (vafoti 983 y.), Abu Mansur al-Qumriy (vafoti 999 y.), Abulxayr ibn Xammor (942-1030 yy.), Abu Salh al-Masihiy (970-1030 yy.) kabilarning ilmiy merosi ularga qadar yaratilib, inson hayotining mo'tadil kechishi, turli kasalliklarni davolash usullari, turli yo'nalishlarda hayotiy faoliyatlarni tashkil etishda amal qilinishi zarur bo'lgan shartlar borasidagi ajdodlar tajribasidan avlodlarni xabardor qiladi.

Sharq mutafakkirlari – Muhammad Muso al-Xorazmiy (782-847 yy.), Abu Nasr Forobiy (870-910 yy.), Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy.), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yy.), Yusuf Xos Hojib (XI asr), Ahmad Yugnakiy (XII-XIII asrlar), Pahlavon Mahmud (1247-1325 yy.), Mahmud Qoshg'ariy (XI asr), Alisher Navoiy (1441-1501 yy.), shuningdek, islom madaniyatining buyuk namoyandalari – Imom Iso at-Termiziy (750/760-869 yy.), Imom Ismoil al-Buxoriy (810-870 yy.), Imom al-Moturudiy (870-975 yy.), Yusuf Hamadoniy (1048-1140 yy.), Ahmad Yassaviy (tax. 1050-1166/7 yy.), Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144 yy.), Burhoniddin Marg'inoniy (1116-1197 yy.), Najmiddin Kubro (1145-1221 yy.), Xoja Abduholiq G'ijduvoniy (XII asrning birinchi choragi-1220 y.), Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389 yy.), So'fi Olloyor (1644-1721 yy.) va boshqalarning ilmiy-nazariy qarashlari sirasida hayotiy faoliyatni to'g'ri tashkil etish, sog'lom turmush kechirish



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 7

tamoyillari, yosh avlodni sog‘lom inson qilib tarbiyalash mezonlari, ma’naviy va ruhiy barkamollikka erishish asoslari o‘z ifodasini topgan.

Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning nafaqat Sharq, shu bilan birga jahon tibbiyat ilmini shakllantirishdagi hissasi beqiyosdir. Alloma tomonidan yaratilgan “Tib qonunlari”, “Kitob ash-Shifo” (“Shifo kitobi”), “Kitob un-najot” (“Najot kitobi”), “Donishnama” kabi asarlarda bevosita falsafiy-tibbiy qarashlari bayon qilingan hamda salomatlikni saqlash shartlari, me’yorlari va tibbiy profilaktik tamoyillar asoslab berilgan. Allomaning fikricha, salomatlikni asrash murakkab jarayon bo‘lib, ushbu masalaga jiddiy ahamiyat qaratish, bu boradagi amaliy harakatlarni izchil tashkil etish zarur. STT qoidalariga qat’iy amal qilish inson salomatligini kafolatlovchi bosh omil sanaladi. O‘z asarlarida yoshlik va kesalik xususiyatlarini o‘rganish, umrni uzaytirishga yordam beruvchi tibbiy-psixologik va ruhiy-jismoniy omillar tadqiq qilish orqali Abu Ali Sino “Gerontologiya” faniga asos solgan.

Kuzatishlari hamda tadqiqotlari asosida tashqi muhitning inson organizmiga ko‘rsatuvchi muhim ta’sirini ishonchli dalillar bilan asoslagan alloma ayrim kasalliklarning havo va suv orqali tarqalishini e’tirof etgan.

Jismoniy harakatlarning inson salomatligini muhofazalashdagi roliga yuqori baho berar ekan, Abu Ali ibn Sino maxsus jismoniy mashqlar tizimini ishlab chiqqan. “Badantarbiya bilan mashg‘ul bo‘linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq zarur” ligini ta’kidlash asosida inson badantarbiya bilan doimiy shug‘ullanish va o‘zni tiyish tufayli tabobatga ham muhtojlik sezmasligiga alohida urg‘u beradi. “Kasallikni emas, kasalni davolash zarur”, “Tabiat sog‘lomlashtiradi, tabib davolaydi”, “Dardning oldini olish, uni davolashdan ko‘ra osonroqdir” kabi fikrlarni ilgari surish, tabibning “tana podshohi” deya baholash bilan birga badantarbiyani inkor yoki tark etish harakatsiz qolgan a’zolar quvvatini zaiflashtiradi va og‘ir asoratlarni keltirib chiqaradi deya ta’kidlaydi.

Ulug‘ mutafakkir inson uchun eng katta ne’mat tinchlik va salomatlik ekanligini qayd etgan holda insonlarni ularni asrashga undaydi.

Gippokrat kabi Abu Ali Ibn Sino ham inson salomatligini muhofaza qilishni san’at sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, salomatlikni saqlashning asosiy sharti inson hayoti uchun ahamiyatli bo‘lgan omillar mo‘tadilligini ta’minlash, tana mutanosibligi (ya’ni mijozning mo‘tadil bo‘lishi)ga erishish, oziq-ovqat va ichimliklarning to‘g‘ri tanlanishidir.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 7

Allomaning inson tanasining fiziologik xususiyatlari hamda atrof-muhitning inson salomatligiga ta'siri ilmiy tahlil etar ekan, organizmni turli chiqindilardan tozalash, tana vaznini mo'tadil saqlash (ortiqcha semizlik va o'ta ozg'inlikning ziyoni), atrof-muhit ozodaligi, havoning tozaligi, kiyinishda ma'lum tartiblarga rioya qilish (fasllarga moslab kiyinish), jismoniy harakatlar mutanosibligiga erishish va ularga rioya qilish, ovqatlanish va uyqu tartibiga rioya qilish inson salomatligini saqlashning muhim shartlari ekanligini amaliy jihatdan isbotlaydi.

Harakatdagi tana davoga muhtoj bo'lmashagini ta'kidlagan holda alloma bolalarni chiniqtirish va ularga jismoniy mashqlar o'rgatishga alohida e'tibor qaratish, shuningdek, balog'atga yetganlar va keksalarning salomatligini muhofazalash uchun ham jismoniy harakatlar zarurligini, tananing har bir a'zosi uchun o'ziga xos jismoniy mashqlar talab etilishini uqtiradi. Tanani chiniqtirishda hammomning ta'siri va massajning ahamiyatini yoritar ekan, Abu Ali ibn Sino ularni inson salomatligini saqlash va umrni uzaytirish omillari sifatida baholaydi.

Sharq mutafakkirlari, shuningdek, tasavvuf ta'limoti namoyandalari qarashlarida jamiyatda STTni qaror toptirish fuqarolarning ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishlariga yordam bersa, o'z navbatida komil insonlar ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi sub'ektlar sifatida e'tirof etiladi. Jismonan sog'lom insongina ma'naviyruhiy ehtiyojlarga ega bo'ladi, ularni qondirish istagi esa muayyan harakatlarga turtki beradi. Tana va ruh birligi hamda salomatligiga egalik Islom dini g'oyalari, shuningdek, tasavvuf ta'limotida mrkaziy o'rin tutgan komil insonga xos muhim xislat sanaladi.

O'rta asrlarda xalqning "odil shoh"ga ega bo'lish, davlatning odilona, adolatli boshqarilishiga erishish orzusi ham "komil inson" g'oyasi bilan mushtarakdir. Zero, odil shoh komil insonga xos bo'lgan va mutafakkirlarning asarlarida qayd etilgan sifatlarga ega bo'lishi zarur edi. Xususan, Abu Nasr Forobiy odil shoh qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar sirasida keltirgan o'n ikki fazilatning birinchi va yettingchisi bevosita STT shartlarini ifodalashga xizmat qiladi. Xususan:

(birinchidan) bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

(yettinchidan) ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmashin, tabiatni qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 7

Allomaning ko'rsatishicha, barcha insoniy quvvatlar tananing muayyan a'zolari bilan o'zaro moddiy-sababiy aloqadordir. Ya'ni tana a'zolarining quvvati insonning umumiy salomatligi asosini tashkil qiladi.

Foydalanimagan adabiyotlar:

1. Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002. – 304 b.
2. Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедеятельности// Психологиуа формированиуа и развитиуа личности. – М.: 2001. – С. 19-44.
3. Абу Наср Фаробий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи: М.Қодиров: маъсул мухаррир: А.Жалолов. – Т.: “Ёзувчи”. 2001. – 64 б.
4. В.М.Шапиро Л.Н.Башмакова. Здоровый образ жизни. Пособие для учителей. Алматы. 2003..
5. А.И.Сайдов. ОИЛАДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил №6)